



FIRIBGARLIKNING VIKTIMOLOGIK PROFILAKTIKASI TUSHUNCHASI VA MOHIYATI

Yuldashev Djahongir Xayitovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kafedra boshlig'i, yu.f.d., professor

Aliqulov Sunnat Zokir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kursanti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11263111>


Har qanday jamiyatda bo'lganidek, bizning jamiyatda ham shunday ijtimoiy-iqtisodiy salbiy hodisa, voqea va jarayonlar borki, ular shaxslarga ta'sir etish orqali ma'lum bir qism odamlarning ma'naviy-ruhiy dunyosida jamiyatda vujudga kelgan va salbiy xususiyatga ega bo'lgan ruhiy muhit ta'sirida zo'ravonlik, g'arazgo'ylik, ochko'zlik, xudbinlik, va boshqa salbiy xislatlarni shakllantiradi, ular bilan bog'liq jinoyatlarning sodir etilishi va ko'payib borishiga olib keladi. Aytish kerakki, firibgarlik jinoyatlari ham yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, ochko'zlik, xudbinlik, g'arazgo'ylik va boshqa shunga o'xshash salbiy xususiyatga ega bo'lgan belgilarni o'zida qamrab oladi.

Bu turdagi huquqbuzarliklar qaysi qonun hujjatlari bilan tartibga solinganligi, javobgarlik masalasi qanday ekanligi ularni kvalifikatsiya qilish jarayonida qanday muammolarga duch kelinayotganligini quyida ko'rib chiqamiz. Firibgarlik tarixan ijtimoiy qoralangan qilmish bo'lib, huquqbuzarlik bo'lishiga qaramasdan, ushbu qilmish uchun alohida javobgarlik amaldagi Jinoyat kodeksida uning ta'rifi berilgan. Firibgarlikning predmeti o'zganing mulki yoki mulkka bo'lgan huquqidir. Mulkka bo'lgan huquq, odatda, turli xil hujjatlarda mustahkamlangan bo'ladi[1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash maqsadida 1997-yilda O'zbekiston inson huquqlari va erkinliklarini o'zida mustahkamlagan 21 ta xalqaro hujjatga qo'shilib, bu orqali O'zbekiston Respublikasida inson huquqlari va erkinliklari ta'minlanayotganini yana bir bor ko'rsatib qo'ydi.

Bu hujjatlar O'zbekiston qonunchiligining shakllanishi, jumladan jinoyat hamda inson huquq va erkinliklari borasidagi qonunlarning yaratilishi uchun ham asos bo'lib xizmat qildi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shaxsning huquq va erkinliklari turli huquq sohalarining normalari bilan himoya qilinadi, lekin jinoyat qonunlarida fuqarolarning huquq va erkinliklari buzilganligi uchun jinoiy javobgarlik belgilangan bo'lib, huquqning bu sohasi ana shu javobgarlikni qo'llash orqali fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qiladi[2].





Bilamizki, fuqarolarning huquq va erkinliklari ko'p holatda boshqa fuqarolar tomonidan sodir etiladigan huquqbuzarlik va jinoyatlarning sodir yetilishi natijasida buziladi. Shuning uchun ham firibgarlik jinoyati va uning oldini olish usullarini chuqur tahlillar asosida o'rganishimiz lozim.


Bu yo'nalishdagi ishlarni takomillashtirish borasida Prezidentimiz ham bir qator islohotlarni amalga oshirmoqda, bunga yaqqol misol O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasida *«Inson manfaatlari – hamma narsadan ustun»* degan tamoyil va *«Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak»* degan ezgu g'oya, eng avvalo, xalq bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot o'rnatish hamda fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining real himoya qilinishini ta'minlash orqali kuchli demokratik jamiyat qurishni hayotga amaliy tatbiq etishga qaratilgan.

Yuqoridagilarga asoslanib birinchi navbatda “firibgarlik” va “viktimologiya” tushunchalariga to'xtalib o'tishimiz maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Jinoyat sodir etishning sabablar zanjirida jabrlanuvchi jiddiy rol o'ynaydi, degan g'oya yangi emas, u ko'p sonli adabiy manbalarda va huquq ijodkorligi yodgorliklarida o'z aksini topgan. Lekin uning muayyan darajada ifodali talqiniga XVIII asr mutafakkirlarining asarlarida duch kelish mumkin.

Huquq fanining mumtoz davri namoyandalaridan biri Ieremiya Bentam (1748-1832) jinoyat qonunchiligiga jabrlanuvchiga yetkazilgan zararni qoplashni nazarda tutuvchi normalarni kiritishni taklif qilgan. Bu jinoyatchini yanada og'irroq jazolash va qo'rqitish imkonini beradi, deb hisoblagan u. Ijobiy huquq yo'nalishining vakili Raffael Garofalo (1852-1934) ham jabrlanuvchilarga yetkazilgan zararni qoplashga aholini jinoyatchilardan himoya qilishni yanada kuchaytirish vositasi sifatida qaragan (turinlik bu sudya «kriminologiya» atamasini birinchi bo'lib ilmiy muomalaga kiritgan).

Lekin jinoyatchilikning muhim omili va kriminologiyaning tarkibiy qismi sifatida jabrlanuvchi faqat XX asrning birinchi yarmida tizimli ravishda tadqiq qilina boshlandi. Odatda bu adabiyotlarda 1948-yil «Jinoyatchi va jabrlanuvchi» deb nomlangan katta va maxsus ilmiy tadqiqotni e'lon qilgan nemis olimi Gans fon Genting nomi bilan bog'lanadi. O'z tadqiqotida u o'quvchilar e'tiborini jinoyatning yuzaga kelish omili sifatidagi jabrlanuvchiga qaratadi. Genting shuningdek, jinoyatchilikni zarar yetkazuvchi va undan jabrlanuvchi o'rtasidagi muayyan o'zaro munosabatlar sifatida tushunish g'oyasini ilgari suradi. Uning





fikriga ko'ra, jabrlanuvchilar to'g'risida to'plangan ma'lumotlarga asoslangan holda jinoyatchi va jabrlanuvchi o'rtasidagi munosabatlarning muayyan tiplarini ajratish mumkin, bu munosabatlar esa jinoyat bilan uzviy bog'liqdir. Bu esa sodir etilgan jinoyatni nafaqat tahlil qilishni, balki uning bo'lajak jabrlanuvchilari haqida muayyan prognozlar tuzishni va hatto latent (yashirin) jinoyatchilikning holatini aniqlashni taqozo etadi. [3].

Viktimologiya tushunchasining lug'aviy ma'nosiga to'xtaladigan bo'lsak, viktimologiya bu ensiklopedik va izohli lug'atlarda lotinchadan «victima» – jabrlangan, jabrlanuvchi va yunoncha «logos»–ta'limot, ya'ni jabrlanuvchilar haqidagi ta'limot[4] degan ma'noni anglatadi.

Mamlakatimizning kriminolog olimlari esa viktimologiya so'zining (lotincha «victima» – jabrlanuvchi va grekcha logos – ta'limot) mazmunini ochib berishda ensiklopedik va izohli lug'atlarga asoslanishgan[5]. Aynan shuning uchun ham, ularning tadqiqotlarida «qurbon» atamasi o'rniga «jabrlanuvchi», «huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxs» atamasi ko'proq ishlatilishi ko'zga tashlanadi.

Rus kriminologlarining ilmiy tadqiqotlarida «Viktimologiya» atamasi ikki so'zdan iborat ekanligini: lotincha victima–xudoga qurbon keltiriluvchi tirik mavjudot, qurbon va grekcha logos–so'z, ta'limot, demak «qurbon haqidagi ta'limot». Ular o'z asarlarida qurbon so'zi bilan jabrlanuvchi so'zlariga ta'rif berishga hamda ushbu so'zlarning qaysi biri huquqbuzarlikdan zarar ko'rgan shaxsga nisbatan ishlatilishi mantiqan to'g'ri bo'lishini isbotlashga harakat qilishgan[6].

Mamlakatimizning kriminolog olimlari esa viktimologiya so'zining (lotincha «victima»–jabrlanuvchi va grekcha logos–ta'limot) mazmunini ochib berishda ensiklopedik va izohli lug'atlarga asoslanishgan[7]. Aynan shuning uchun ham, ularning tadqiqotlarida «qurbon» atamasi o'rniga «jabrlanuvchi», «huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxs» atamasi ko'proq ishlatilishi ko'zga tashlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, har qanday holatda ham viktim so'zini qurbon deb tarjima qilish maqsadga muvofiqdek ko'rinishi mumkin. Biroq qurbon so'zining huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxsga nisbatan ishlatilishi turli bahs-munozaralarga sabab bo'ladi. Chunki qurbon so'zining odatga ko'ra, qurbonlik, ya'ni xudoga jonliqni qurbonlikka keltirish ma'nosida ishlatish to'g'riroqdir. Shuning uchun, huquqbuzarlikdan jabr ko'rgan shaxsga nisbatan «qurbon» atamasi o'rniga «jabrlanuvchi» atamasining qo'llanilishi maqsadga muvofiq.





Jabrlanuvchi tushunchasi va huquqiy maqomi esa O'zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi (jabrlanuvchi jinoyat natijasida ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar ko'rgan shaxs (JPK 54-m.))[\[8\]](#) hamda Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (jabrlanuvchiga ma'muriy huquqbuzarlik yo'li bilan ma'naviy, jismoniy yoki mulkiy zarar yetkazilgan shaxs (MJtK 295-m.))[\[9\]](#) da mustahkamlangan. Shuning uchun yuridik jihatdan qurbon atamasi o'rniga jabrlanuvchi atamasini ishlatish maqsadga muvofiq.

Huquqshunos olimlarning ba'zilar firibgarlikning tushunchasini yoritishda kengroq, ba'zilar esa nisbatan torroq yondashishganligini ham kuzatish mumkin. Xususan, ular «profilaktika» so'zi faqat oqibatni emas, balki sabab va sharoitning ham oldini olishni qamrab oladi deb ta'kidlagan[\[10\]](#).

Shuni alohida ta'kidlash joizki, amaldagi qonun hujjatlariga asoslangan holda ichki ishlar organlari faoliyatida qo'llaniladigan

«profilaktika» tushunchasini turlicha ta'riflash mumkin. Masalan, profilaktika atamasi huquqbuzarlik so'zi bilan kelganda firibgarlikning profilaktikasi – ya'ni huquq-tartibotni saqlash hamda mustahkamlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, ularga barham berish, shuningdek huquqbuzarliklarning sodir etilishi sabablarini va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash, bartaraf etish maqsadida qo'llaniladigan chora-tadbirlar tizimidir. "Profilaktika" atamasi viktimologiya so'zi bilan kelganda profilaktika, ya'ni muayyan shaxsning huquqbuzarlikdan jabrlanuvchiga aylanishi xavfini kamaytirishga qaratilgan profilaktika chora-tadbirlarini qo'llashga doir faoliyat deb tushunish mumkin[\[11\]](#).

Yuridik adabiyotlarda «huquqbuzarliklar profilaktikasi», «jinoyatlarning profilaktikasi», «profilaktika», «jabrlanishning oldini olish», «jabrlanuvchilar profilaktikasi» kabi so'z birikmalari sinonim sifatida ishlatilib kelinmoqda.

Yuqoridagi keltirilgan ta'riflarda jinoyatlarning profilaktikasi nazarda tutilgan. Amaliyot profilaktika faoliyati tushunchasini kengroq talqin etishni taqozo etadi. Chunki O'zbekiston Respublikasining «Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida»gi qonunida (14.05.2014 y.) jinoyatlarning emas, balki huquqbuzarliklar (ma'muriy va jinoiy) profilaktikasi belgilangan.

Bayon etilganlarga ko'ra huquqbuzarlik oqibatida jabrlanganlar shaxsi va o'zlarini tutishlari bilan bog'liq xatti-harakatlarini tadqiq etish uchun huquqbuzarlik qurbonlarini asosan quyidagi yo'nalishlarga bo'lish mumkin:

- huquqbuzarlik qurboni va huquqbuzar o'rtasidagi munosabat hamda ularning o'zaro bog'lanishiga;





- jinoyatning sodir etilishida sabab va muhitni yuzaga keltirish bilan bog'liq holda huquqbuzarlik qurbonlarining shaxsi va o'zini tutishining mavjudligiga;

- aniq bir hayotiy vaziyatlarda jabrlanuvchi tomonidan o'zini tutishi oqibatida jinoyatni yuzaga kelishiga;

- huquqbuzarlik sodir etilganidan so'ng, ayniqsa, (residiv) huquqbuzarliklarni o'rganishda jabrlanuvchining shaxsi va uning o'zini tutishiga;

- latent huquqbuzarlikni yuzaga kelishida jabrlanuvchining shaxsi va xatti-harakatlaridagi o'zaro bog'liqlik xususiyatlari kabi

Sanab o'tilganlarning e'tiborga olinishi viktimologiya muammolarini o'rganishga keng imkoniyatlar yaratadi.

Ta'kidlash joizki, huquqbuzarliklarning oldini olish va huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini amalga oshirishda va uni tashkil etilishda, tarixiy merosdan ham foydalanish zarur. Jumladan,

Sohibqiron Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarida huquqbuzarliklarning oldini olish sohasiga taalluqli bo'lgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan boy fikr va falsafiy g'oyalar mavjud. Viktimologiya masalalari diniy manbalarda, jumladan Qur'oni Karim va Injilda ham eslatib o'tilgan. Tarixiy manbalarga murojaat qiladigan bo'lsak shu narsa oydinlashadiki, jahon taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan Injilda qurbon haqidagi tushuncha mexanizmida e'tiborga loyiq bo'lgan bir qator vaziyatlar haqida so'z yuritiladi. Masalan, Odam Ato o'g'illari Qobil va Xobil to'g'risidagi, aniqrog'i nizoli vaziyatda ukaning aka bilan munosabatdagi xulq - atvori to'g'risidagi afsona ilmiy muomalaga «Xobil kompleksi» sifatida kirgan.[\[12\]](#)

Yana shu qatorda ilmiy tadqiqotlarda viktimlik degan tushunchalar ham kiritilgan bo'lib, bu insonning huquqbuzarlikdan jabrlanish imkoniyati emas, balki insonning huquqbuzarlikdan jabrlanish ehtimoli yuqori bo'lgan holati hisoblanadi, hamda viktimlikning aybli va aybsiz turlariga ajratilgan.

Aybli viktimlik potensial qurbonning salbiy, huquq va axloq nuqtayi nazaridan esa nomunosib xulqidan iborat bo'lib, u jinoyat sodir etilishiga imkon beradigan omil hisoblanadi. Masalan, yo'l-transport hodisalaridan fuqarolarning ko'pgina qismi yo'l qoidalariga rioya qilmaganliklari oqibatida jabrlanadilar.

Aybsiz viktimlik umuman hayotda, xususan, jinoyatdan avvalgi vaziyatda ijtimoiy ma'qul axloqqa ega bo'lgan muayyan shaxsning (masalan, inkassator, mahalla posboni) mehnat yoki jamoat faoliyatining xususiyati yoxud psixofiziologik jihatlar (masalan, bola, qariya, bemorligi kabilar) bilan bog'liq.





Shu o'rinda viktimlik darajalari mavjudligini bilish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada viktimlikning quyidagi uch darajasi mavjudligi ko'zga tashlanadi:

1) *viktimlik darajasi kam bo'lgan shaxslar* – jismonan baquvvat, voqelikka to'g'ri yondashuvchi va boshqalar;

2) *viktimlik darajasi o'rtacha bo'lgan shaxslar* – neytral shaxslar, ya'ni o'zida nizoli holatni keltirib chiqarmaydigan, lekin nohaqlikka chiqolmaydigan shaxslar;

3) *viktimlik darajasi yuqori bo'lgan shaxslar* – kasbi, ijtimoiy maqomi, biofiziologik xususiyati, moddiy ahvoli, ma'naviy-ruhiy belgilari kabilar bilan bog'liq holda huquqbuzarliklardan jabrlanish ehtimoli mavjud bo'lgan shaxslardir.[\[13\]](#)

Huquqbuzarliklarning viktimologik profilaktikasini tashkil qilishda huquqbuzarliklarning oldini olish subyektlarini *uch guruhga* bo'lib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruhga, huquqbuzarlikni oldini olish faoliyatini tashkil etish, unga rahbarlik qilish va barcha subyektlar faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi subyektlar tashkil qiladi;

Ikkinchi guruhga, o'zlarining asosiy vazifasi huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha bevosita chora-tadbirlarni amalga oshiruvchi subyektlarni kiritamiz;

Uchinchi guruhga, bevosita yakka tartibdagi huquqbuzarliklarning oldini olish bilan dastlabki bosqichda shug'ullanuvchi subyektlarni kiritish mumkin. Bunday guruhlariga ajratish shartli hisoblanadi[\[14\]](#).

Aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritish haqida gapirilganda, eng avvalo, uning mazmunini tashkil etuvchi – «firibgarlik» atamasi bilan bog'liq bo'lgan ayrim tushunchalarni tahlil qilish zarur. «Firibgarlik» tushunchasini o'rganish jarayonida uni ta'riflashda quyidagi to'rt xil yondashuv mavjudligi kuzatildi:

Birinchi: O'zbek tilining izohli lug'atida «firibgarlik» tushunchasining lug'aviy ma'nosi quyidagicha izohlangan:

– Firibgarlik– “aldamchilik, hiylagarlik”[\[15\]](#) ma'nolarini bildiradi.

Ikkinchi: Islomda aldov, firibgarlik, birovni chuv tushirish, savdo-sotiqda aldamchilik kabi illatlar qoralangan. Hadisi sharifning rivoyatlarida “Kimki aldab firib bersa, bizdan emas!” deb keltirilgan.

Uchinchi: Firibgarlik jinoyati tushunchasi hamda uning uchun javobgarlik masalalari **O'zbekiston Respublikasining Jinoyat Kodeksining 168-**





moddasida nazarda tutilgan. Jinoiy-huquqiy tushuncha firibgarlik, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiga bo'lgan huquqni qo'lga kiritishni anglatadi.

Bunday qilmish uchun ozodlikdan mahrum qilishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llanilishi nazarda tutilgan.

To'rtinchi: **Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida** firibgarlik tushunchasi yoritilgan:

Firibgarlik mulkka qarshi qaratilgan jinoyatlar ichida eng ko'p tarqalganlaridan biri bo'lib, aldash yoki ishonchni suiiste'mol qilish yo'li bilan o'zganing mulkini yoki o'zganing mulkiy huquqini qo'lga kiritishdan iborat bo'ladi. Firibgarlikning o'ziga xos xususiyatlari nafaqat uning sodir etilishi usuli, balki qonunda maxsus belgilangan tajovuz qilish predmeti ham hisoblanadi.

Firibgarlikning obyekti o'zganing mulki hisoblanadi.

Tajovuz predmeti mulkdan tashqari yuridik kategoriya sifatida o'zganing mulkiga bo'lgan huquq, mulkka bo'lgan alohida vakolatlar (masalan, aybdor uyda yashash huquqini qo'lga kiritishi mumkin) hisoblanadi. Bu huquqlar turli xil hujjatlarda, masalan, vasiyatnoma, sug'urta polisi, muayyan boyliklarni olish uchun ishonchnoma, turli xil qimmatli qog'ozlarda mustahkamlangan bo'lishi mumkin. Nomi yozilgan qimmatli qog'ozlarda tasdiqlangan mulkiy huquqlar talab qilinganda, talablar (sessiya)ni qondirishning belgilangan tartibi asosida beriladi. Order bo'yicha huquq, ya'ni shaxsga yoki uning topshirig'iga ko'ra ushbu hujjat bo'yicha o'zga shaxsga berilgan huquq xususidagi o'tkazish yozuvi - indossament kiritilib, ijro amalga oshirilishi mumkin. Qimmatli qog'ozda amalga oshirilayotgan indossament ushbu hujjat o'tkazilayotgan shaxsga unga egalik qilishga bo'lgan barcha huquqlarni o'tkazadi.

Firibgarlik aldovlarining shakllari xilma-xildir. Aldash og'zaki yoki yozma shaklda, bitim predmetini qalbakilashtirish shaklida, karta o'yinlarini o'ynashda ko'zbo'yamachilik usullarida, hisob-kitob qilishda qalbakilashtirilgan to'lov predmetlaridan foydalanish shaklida bo'lishi mumkin. Qoida bo'yicha, firibgarlik harakati sodir etilishida turli xil aldash shakllaridan foydalaniladi.

Subyektiv tomondan ushbu jinoyat faqat qasddan va g'araz maqsad bilan sodir etiladi. Aybdor o'zganing mulkini qo'lga kiritish maqsadida jabrlanuvchini chalg'itayotganligini yoki bila turib ishonchini suiiste'mol qilayotganligini anglab yetadi va buning sodir etilishini xohlaydi. Shuningdek, ushbu jinoiy qilmishni aybdor mulkiy foyda olish va boyib ketish maqsadida sodir etadi.

Yuqoridagi tushunchalar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, firibgarlikning tushunchasi uning sodir etish usuli, shakllari va qo'llash metodlaridan kelib





chiqadi. Masalan, firibgarlikka oid barcha tushunchalarda birovni aldash orqali mulkni yoki mulkka bo'lgan huquqni qo'lga kiritish bilan bog'liq xatti-harakatlar kuzatiladi.

Firibgarlik jinoyatlarining kamaytirish masalasi HMQOlar oldida turgan eng muhim va ustuvor vazifalardan bo'lib, mazkur vazifalarni amalga oshirish samaradorligini ta'minlash ko'proq ogoh etuvchi profilaktik chora-tadbirlarni ishlab chiqishni hamda ularni amalga oshirishda qo'llanilayotgan firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi mexanizmini muntazam ravishda takomillashtirib borishni taqozo etadi. Firibgarlik jinoyatining barvaqt profilaktikasi samaradorligini ta'minlash uchun eng avvalo mazkur turdagi jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon berayotgan shart-sharoitlarni aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, har qanday voqea, hodisa, jarayon yoki mavjudlikning mohiyatini o'rganish uning kelib chiqishi yoki sodir bo'lishiga turtki bergan sabablar, imkoniyat yaratgan shart-sharoitlar haqida aniq ma'lumotga ega bo'lishni talab etadi.

Tahlillardan kuzatish mumkinki, firibgarlik jinoyatining sodir etilishining asosiy sabablardan biri shaxslardagi pulga bo'lgan ehtiyojning mavjudligidadir. Shu o'rinda aytish joizki, ushbu ehtiyoj ikki taraflama bo'lishi mumkin. Masalan, fuqaro A. Chorva mollarining oldi-sotdisi bilan shug'ullanadi, u fuqaro B.ning ishonchiga kirib qora mollarini B. Kutgan narxdan ko'ra qimmatga baholab, faqat ushbu pullarni bir yildan keyin berish sharti bilan chorva mollarini olib ketadi va ularni pullab o'z ehtiyojlariga sarflaydi. Kelishilgan muddat kelgach esa fuqaro B.ni har xil vaj va bahonalar bilan aldab uning pullarini qaytarib bermaydi. Gap shundaki, bu holatda jabrlangan fuqaro B.ning o'zi kutganidan ortiqroq pulga uchib aldanadi, ya'ni jinoyat qurboni bo'lishiga sababchi bo'ladi.

Shu bilan birga, shayxlarda firibgarlik jinoyatini sodir etishga undovchi boshqa turdagi ehtiyojlar ham mavjud. Har qanday insonda jismoniy ehtiyojni qondirishga bo'lgan xohish kuchliroq bo'ladi. Huquqshunos olimlarning fikriga ko'ra, ayrim toifadagi firibgarlar hayotda zaruriy ehtiyojni qondirish istagida firibgarlikka qo'l urishadi. Firibgarlar orasida spirtli ichimlikka ruju qo'ygan va giyohvandlikka chalinganlarda asosan bunday holat kuzatiladi. Chunki, ularda hayotga, yaxshi yashashga bo'lgan qiziqish so'ngan bo'ladi. Ular faqatgina kundalik jismoniy ehtiyojini qondirish maqsadida bo'lishadi.

Bundan tashqari, firibgarlikdan jabrlangan shaxslarda ham ma'lum ehtiyojlar bo'lib, ular quyidagilarda namoyon bo'lishi mumkin:

- jismoniy ehtiyoj: *ochlik, chanqoqlik, jinsiy xayrixohlik;*





– ijtimoiy ehtiyoj: *ijtimoiy aloqalar, muloqot, bog'langanlik, boshqalar haqida qayg'urish va o'ziga nisbatan g'amxo'rlik, hamkorlikdagi faoliyat;*

– ruhiy ehtiyoj: *iqrorlik, xohish-istak;*

– ma'naviy ehtiyoj: *o'zini o'zi hurmat qilish, boshqalar tomonidan hurmat qilinishi, natijadorlik va yuqori bahoga erishish, tan olinish;* – moddiy ehtiyoj: *doimiy yashash sharoitini yaxshilashga intilish.*

Yengil pul topish, hayotda qiyinchilik ko'rmasdan kun kechirish, qiyinchiliklarni osonlik bilan yengib o'tishga urinish, har qanday shaxsni o'ziga jalb etish ehtimoli yuqori. Biroq, shuni ta'kidlash joizki, shaxslardagi g'urur, insof, diyonat, vijdon kabi xususiyatlar hamda axloqiy tarbiya tamoyillari ko'pchilikni jinoyat sodir etishiga yo'l qo'ymaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасалари фаолиятида тадбиркорликнинг ўрни //Международная конференция академических наук. – 2022. – Т. 1. – №. 27. – С. 16- 20.
2. Қушбоқов Ш., Самадов М. Ички ишлар органлари томонидан ҳуқуқбузарликлар профилактикасини амалга оширишда маъмурий ҳуқуқбузарликлар тўғрисидаги ишларни ўрни //Science and innovation in the education system. – 2023. – Т. 2. – №. 13. – С. 73-76.
3. Алтмишев Т., Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларида маҳкумларнинг сайловга оид ҳуқуқларини таъминлаш //Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук. – 2023. – Т. 3. – №. Special Issue. – С. 112-114.
4. Qushboqov S. Jazoni ijro etish muassasalarining yuridik shaxs sifatidagi tushunchasini yoritishda nazariy tahlil //Центральноазиатский журнал образования и инноваций. – 2023. – Т. 2. – №. 2 Part 2. – С. 49-52.
5. Қушбоқов Ш., Турниёзов Ж. Ички ишлар органлари ходимларининг касбий маданият ва хизмат интизоми ҳуқуқий тартибга солиш истиқболи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 49-55.
6. Қушбоқов Ш. Юртимизда тадбиркорликни жазони ижро этиш тизимидаги истиқболи //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 114-117.
7. Қушбоқов Ш. Жазони ижро этиш муассасаларининг юридик шахс сифатидаги тушунчасининг таснифи //Development of pedagogical technologies in modern sciences. – 2022. – Т. 1. – №. 4. – С. 58-63.





8. Qushboqov S., Mamatova D. yangi O'zbekistonda huquqbuzarlik profilaktikasining o'rni //current approaches and new research in modern sciences. – 2023. – T. 2. – №. 10. – С. 37-39.
9. Охунов, З., & Қушбоқов, Ш. (2022). Талабалар томонидан содир этиладиган ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар. Евразийский журнал права, финансов и прикладных наук, 2(11), 34-39.
10. Qushboqov S., Zamonov X. Shaxsning hayoti va sogligiga qarshi jinoyatlarning oldini olishning oziga xos xususiyatlari //Инновационные исследования в науке. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – С. 79-84.
11. Охунов З., Қушбоқов Ш Т. Т. С. Э. Ҳуқуқбузарликларни олдини олишга оид айрим мулоҳазалар //Eurasian Journal of Law, Finance and Applied Sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 11. – С. 34-39. 195
12. Qushboqov S., Tilabov S. Kiber jinoyatlardan saqlanishda umumiy profilaktikani o'rni //Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 18. – С. 67- 69.
13. Qushboqov S. X., Usipbekov N. J. Yurtimizda mahkumlarni ozodlikka tayyorlashda amalga oshirilgan islohotlar va ulardan kutilayotgan natijalar //Models and methods in modern science. – 2023. – Т. 2. – №. 12. – С. 179-182.

